
Farg'ona shahridagi "Bek ota" fermer xo'jaligida 50 turdagi kolbasa mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov Farg'ona shahridagi o'rganishlari davomida Ipak yo'li MFY hududida joylashgan "Bek ota" fermer xo'jaligida bo'lib, go'shtni qayta ishlash, kolbasa mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasi bilan tanishdi.

500 ming yevrodan ziyod mablag' yo'naltirish hisobiga amalga oshirilgan ushbu loyiha, 40 dan ortiq doimiy ish o'rni yaratilishiga omil bo'ldi.

Fermer xo'jaligi rahbari Alisher Axunovning ma'lum qilishicha, xo'jalikda 42,5 gektar ekin maydoni, 2,6 gektar mevali bog'lar mavjud. 300 boshga yaqin qoramol boqilmoqda. Kolbasa mahsulotlari ham fermer xo'jaligida yetishtirilgan qoramol go'shtlaridan tayyorlanadi.

Germaniya texnologiyasi bilan jihozlangan sexda 50 turdagi kolbasa mahsulotlari ishlab chiqarilib, aholi dasturxoniga yetkazilmoqda.

2022-09-27 16:19:40